

**SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA MILLIY
QADRIYATLARNING BADIY IFODASI.**

Qodirova Nilufar Mavlon qizi.

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2 -bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Istamova Shohida Maxsudovna

Buxoro davlat pedagogika institute O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning hikoyalarida o'zbeklarga xos milliy qadriyatlarning badiiy ifodasi, shuningdek insoniylik deya ulug'lanmish buyuk ne'matning o'zbek xalqiga qanchalik aloqador ekanligi hamda halol mehmatoila mustahkamligi kabi fazilatlar xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, insoniylik, soddadillik, o'zbek hikoyachiligi, halol mehnat, tabiat va inson uyg'unligi.

Annotation: This article discusses the artistic expression of national values inherent to Uzbeks in the stories of Shukur Kholmirzayev, as well as the relevance of the great gift called humanity to the Uzbek people, as well as such qualities as honest kindness and family strength.

Keywords: national values, humanity, simplicity, Uzbek storytelling, honest work, harmony between nature and man.

Аннотация: В статье собраны рассказы Шукура Холмирзаева национальные ценности, присущие только узбекам, а также великие ценности человечества Обсуждалось, насколько это благословение связано с узбекским народом.

Ключевые слова: национальные ценности, гуманность, простота, узбекское сказительство, честный труд, гармония природы и человека.

XX asr o'zbek nasrining taraqqiyotini Abdulla Qahhordan keyingi zabardast o'zbek adibi Shukur Xolnirzayevsiz tasavvur qila olmaymiz .O'zbekiston xalq yozuvchisi,Hamza nomidagi respublika davlat mukofoti sovrindori,"Mehnat shuxrati" ordeni sohibi Shukur Xolmirzayev o'zining realistik asarlarida o'zbeklarga xos bo'lgan milliy qadriyatlar,shuningdek o'sha davrdagi milliy ruh va ma'naviy va axloqiy muammolarni baralla ko'tarib chiqa olgan yozuvchilardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, adabiyot quroli so'zdir!Aynan mana shu so'zlar orqali hayotni,insonni badiiy talqin qilish,milliy o'zlikni anglash g'oyalarini kitobxonga singdirish va uning mehrini qozonishni uddalay oldi desak mubolag'a bo'lmaydi.O'zbek xalqi azaldan o'zining samimiyligi,milliyiligi,saxiyligi,urf odatlari va an'analari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi.O'zbeklar faqat o'zini o'ylaydigan,shaxsiy manfaatlari yo'lida boshqalaring mehnatidan foydalanadigan,milliyligimizning asosi bo'lgan insoniylik saxiylilik,tantilik kabi fazilatlarni toptaydigan insonlarni qoralab kelgan.

Milliy o'zlikni anglash g'oyalari adib ijodining dastlabki mamunalaridanoq o'rin olgan.Shukur Xolmirzayevning "O'zbeklar "nomli asarida nafaqat mana shunday g'oyalar,bundan tashqari o'zbek xalqining davr qiyinchiligiga qarshi mardonavor kurashi,sabri,millat ichki ruhiy olami manzaralari,o'zbek millati mentaliteti, soddadilligi, mehmondo'stligi, ochiqko'ngilligi, bag'rikengligi, o'zbekning o'zligini ko'rsatish mahoratining yuksakligi asarda sodda ,ammo puxta va teran so'zlar bilan yoritib berilgan."O'zbeklar" hikoyasi kuz faslida paxta terimiga borgan talaba Ergash obrazi orqali asosiy g'oya yoritib berilgan.Qahramon kursdoshlari bilan paxta terimiga boradi,ammo bu yerda paxta bo'lmasada ,odamlar majburan sovuq va izg'irinda ushlab turiladi va Sovet davridan qolgan "Paxta balosi"ning zug'mlari tasvirlanadi.Bundan tashqari asarda Sho'ro siyosatiga ko'nikkan vatandoshlariga nisbatan befarq bo'lgan O'rmon,Mirzag'olib,Saparboy va Azimjon kabi obrazlarga parallel ravishda o'zida yeyishga hech vaqosi bo'lmasada ,borini yonidagilarga ulashgan Botir cho'pon orqali haqiqiy o'zbeklarning xarakteri ko'rsatib berilgan.Har qanday holatda ham

o'zligidan kechmagan haqiqiy inson sifatida Ergashni va Botir cho'ponni ulug'lay olamiz.

"Nimadir yo'q bo'ldi" hikoyasida esa insoniy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va jamiyatdagi o'zgarishlarni tasvirlovchi asarlardan biridir. Hikoyada insoniy qadriyatlarning yo'qolishi, odamlar orasidagi iliqlik, mehr va samimiyatning asta-sekin yo'qolib borayotgani tasvirlangan. Asar hayotiy o'zgarishlar natijasida yo'qotilgan mehr-muhabbat va samimiyatni aks ettiradi. Asar sujetida aniq bir voqea emas, balki insoniy munosabatlarning o'zgarishi va yo'qotilgan qadriyatlar tasvirlanadi. Hikoyada muallif hayotga chuqur falsafiy nigoh bilan qaraydi. Qahramonlar o'zgarayotgan dunyo ta'sirida oldingi qadrlil his-tuyg'ularidan ayrilgan.

Shukur Xolmirzayevning hikoyalariga xos bo'lgan badiiy uslub bu yerda ham yaqqol seziladi. Asardagi ramziy ma'nolar – "yo'qotish" tushunchasi, insoniy iliqlikning kamayib borishi orqali o'z aksini topadi. Ushbu hikoyani o'qir ekansiz, nihoyasiga yetganda tanangizga g'alati bir junbushlik kiradi. Sababi oilalarda turli xil tushunmovchiliklar ko'plab uchrab turadi, lekin har bir dilxiralikdan so'ng oramizdagi munosabatlardan iliqlik yo'qolib borilishi mohirona tarzda ifodalab berilgan.

Shukur Xolmirzaevning "Notanish odam" hikoyasida ma'naviy va axloqiy masalalar badiiy talqin etilishi hikoyaning asosiy mavzularidan biridir. Ushbu tahlilni kengroq tushunish uchun, hikoyaning turli qatlamlarini batafsil ko'rib chiqish mumkin. Hikoya, tashqi omil sifatida yomg'irni va uning ichki, ruhiy holatga ta'sirini ko'rsatadi. Yomg'ir, tabiatning kuchini va insonning ichki dardini ifodalovchi belgi sifatida ishlatiladi. Qahramonning yomg'irda qolishi va o'zining holatini tasvirlashi, tabiat va insonning o'zaro aloqasini ko'rsatadi. Bu aloqada tabiat nafaqat tashqi muhit, balki insonning ichki ruhiy dunyosini shakllantiruvchi omilga aylanadi. Shunday qilib, yomg'ir nafaqat badiiy element, balki insonning ma'naviy kurashlari, ichki savollariga javob topishga harakat qilishi bilan bog'liqdir. Tabiat bilan uzviy bog'lanish, hikoyadagi axloqiy masalalar orqali taqdim etiladi. Hikoyadagi notanish odamning qahramon bilan o'zaro

munosabatlari, ma'naviy o'sish va o'zgarishning ramzi sifatida qaraladi. Notanish odam o'zining hayotiy tajribalarini qahramon bilan bo'lishib, unga hayotning chuqurroq ma'nolari haqida fikrlar bildiradi. Notanish odamning "yomg'irning yog'ishida ko'ngilga yoqadigan bir dilgirlik bo'ladi" degan so'zlari, ma'naviy o'zgarishning badiiy talqinidir. U, tashqi hodisalar (yomg'ir, tabiat) orqali ichki ruhiy holatlar va hayotiy tajribalar haqida o'ylashga undaydi. Boshqacha aytganda, inson tabiat bilan bo'lgan aloqasi orqali o'zining ichki dunyosini anglaydi va ma'naviy o'sishga erishadi. Hikoyada ikki notanish odam o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro yordam va axloqiy masalalar markaziy o'rin tutadi. Notanish odamning qahramonga yordam taklif qilishi, odamlarning bir-biriga yordam berish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu harakatlar insoniylik va o'zaro hurmatning badiiy ifodasi sifatida ishlatilgan. Shunday qilib, hikoya insonlarning bir-birlariga bo'lgan mehr-muhabbat, yordam va o'zaro hurmatni ko'rsatadi. Bu axloqiy qarashlar, qahramon va notanish odamning muloqotida o'z aksini topadi. Hikoyada qahramonning ichki kurashi, o'zini anglash jarayoni ham juda muhimdir. Yomg'irni ko'rib, qahramonning ongida bir necha savollar paydo bo'ladi, lekin notanish odamning aytgan so'zlari orqali u ichki kurashini yengadi. Bu jarayon, insonning ma'naviy o'sishini anglatadi. Boshqa bir tomondan, notanish odamning o'z tajribalarini qahramonga bo'lishishi, boshqalarga yordam berish orqali ichki tinchlik va ma'naviy yuksalishga erishishi ko'rsatiladi. Hikoyada yaxshi va yomon o'rtasidagi chegaraning noaniqligi ham aks etadi. Notanish odamning "Siz-u bizga o'xshagan biror yo'lovchi bu kamarga kirib qolgudek bo'lsa, sovuqqa qunishib o'tirmasdan, tayyor o'tinni yoqib isinadi" degan so'zlari orqali, u yaxshi va yomonni, axloqiy to'g'rini va noto'g'rini anglashdagi farqni ko'rsatadi. Insonlar o'zining ichki dunyosini va tabiatni to'g'ri anglash orqali bu farqni his etadi va shunga qarab harakat qiladi. Shukur Xolmirzaev o'z hikoyalarida badiiy uslubni mukammal tarzda ishlatgan. Hikoyaning atmosfera va tafsilotlari, badiiy elementlari, tashqi hodisalar orqali ichki dunyolarni talqin qilishiga yordam beradi. Tabiatning o'zgarishlari (yomg'irning yog'ishi, quyosh chiqishi) va ularning qahramonlarning ichki holatiga ta'siri hikoyaning ma'naviy mazmunini yoritadi.

Shuningdek, nafaqat tashqi hodisalar, balki odamlardagi o'zgarishlar ham badiiy tarzda ifodalangan.

Hikoya nafaqat oddiy bir voqea, balki undagi qahramonlarning ruhiy holati va axloqiy tanlovlarining teran badiiy ifodasidir. Insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan aloqalar, har bir voqea va harakatning ma'naviy asosi – bularning barchasi hikoyaning asosiy badiiy mavzusini tashkil etadi. Shukur Xolmirzaevning "Notanish odam" hikoyasida ma'naviy va axloqiy masalalar badiiy talqin etilgan. Tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, axloqiy tanlovlar, o'zaro yordam va o'zini anglash jarayonlari hikoyaning markaziy mavzularidir. Hikoya, tashqi hodisalar orqali ichki dunyoni, ma'naviy kurashlarni va axloqiy qarorlarni tasvirlash orqali insonning ruhiy va axloqiy o'sishini, shuningdek, jamiyat va tabiat bilan aloqalarini chuqur aks ettiradi.

Shukur Xolmirzaevning hikoyalarida ma'naviy va axloqiy masalalar badiiy talqini muhim o'rin tutadi. "Notanish odam" hikoyasi misolida, yozuvchi insonning ichki kurashlari, tabiat bilan aloqasi, o'zaro yordam va axloqiy tanlovlarni chuqur ifodalaydi. Hikoyaning markazida ikki notanish odamning o'zaro muloqoti, tabiat hodisalari orqali yuzaga kelgan ruhiy holatlar va ma'naviy o'sish jarayoni tasvirlanadi. Yomg'ir va quyosh kabi tashqi omillar, qahramonlarning ichki dunyosini aks ettirib, ularning hayotiy tajribalari va axloqiy qarashlarini ifodalaydi.

Xolmirzaev hikoyalarida yaxshi va yomonning noaniq chegaralari, insonning o'zini anglash jarayoni, va tabiat bilan bo'lgan aloqaning axloqiy ahamiyati ko'rsatiladi. Ushbu masalalar yozuvchining asarlarini faqat badiiy voqea sifatida emas, balki chuqur ma'naviy-axloqiy xabarlarni o'zida mujassam etgan asarlarga aylantiradi. Xolmirzaev o'z hikoyalarida insonning ruhiy holatini va axloqiy qarorlarini tabiat bilan uyg'unlashtirgan holda, har bir voqea va harakatning ma'naviy mohiyatini ko'rsatadi. Shunday qilib, uning asarlari nafaqat o'qishni, balki o'ylashni va ichki anglashni talab qiladigan asarlardir.

Adib asarlarini o'qir ekansiz, milliylik, o'ziga xoslik bilan bir qatorda insonlarga xos bo'lgan turli holatlar davr va shaxs muammolariga duch kelasiz va

haqiqiy o'zligimizni anglagan holda insoniylik,ezgulik yo'llari bilan barcha qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkinligini sezasiz. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki,Shukur Xolmirzayev o'zi hayotni chuqur anglagan,insoniyat ruhiyatidagi ichki kechinmalarni seza oladigan yozuvchidir.Bundan tashqari o'zbek xalqiga o'ziga xos odamiylik, mehmondo'stlik, ochiqko'ngillik, xalqparvarlik, milliy qadriyatlarni anglash kabi g'oyalar asarlaring asosini tashkil qiladi.Shunday jihatlari bilan u betakror uslubda o'zbek hikoyachiligida mustahkam cho'qqi yarata oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Xolmirzayev Sh.(2003) Hikoyalar
- 2.Tavaldieva G.Shukur Xolmirzayevning ijodiy yo'li.49
- 3.www.google.com